

“TASDIQLANGAN”
Boshqaruv raisi
"ANOR BANK" AJ
Akramov Sh.S.

ANORBANK va eMaktab
tomonidan amalga oshirilayotgan maxsus ijtimoiy loyiha doirasida
“Sizdan besh baholar, bizdan sovg‘alar”
SOVRINLI O‘YININING IKKINCHI MAVSUMINI
O‘TKAZISH QOIDALARI

1. Mazkur Qoidalar:

a) shartnomaning barcha muhim shartlarini o‘z ichiga olgan va O‘zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 367 va 369-moddalariga muvofiq ommaviy oferta hisoblanadi;

b) ishtirok etish shartlari, G‘olibni aniqlash va Sovrinni topshirish tartibi, shuningdek **“ANOR BANK” AJ** va **"Kundalik" MChJ** bilan birgalikda o‘tkaziladigan **“Sizdan besh baholar, bizdan sovg‘alar”** Sovrinli o‘yinining ikkinchi mavsumini tashkillashtirish va o‘tkazishning boshqa muhim shartlarini tavsiflab beradi;

d) **eMaktab** tizimiga ulangan umumta’lim maktablari o‘quvchilarini rag‘batlantirish va o‘qish samaradorligini oshirish, shuningdek, **“ANOR BANK” AJ** faoliyatini O‘zbekiston Respublikasi hududida o‘quvchilar va ota-onalar o‘rtasida ommalashtirishga qaratilgan **“Sizdan besh baholar, bizdan sovg‘alar”** Sovrinli o‘yini (bundan keyin **“Sovrinli o‘yin”**) tashkil etish va o‘tkazish tartibini belgilab beradi.

2. Sovrinli o‘yin Tashkilotchisi – **“ANOR BANK” AJ**. (bundan keyin – **“Tashkilotchi”**) (manzil: Toshkent shahri, Mirzo- Ulug‘bek tumani, Sayram 5-tor ko‘chasi, 4-uy).

Sovrinli o‘yin o‘tkazish bo‘yicha Hamkor – **“KUNDALIK” MChJ** (bundan keyin – **“Hamkor”**) (hozirda **“eMaktab”**, manzil: Toshkent shahri, Chilonzor tumani, Bunyodkor shoh ko‘chasi, 42/1).

3. Sovrinli o‘yin lotereya yoki boshqa tavakkalchilikka asoslangan o‘yin emas, hamda Sovrinli o‘yin ishtirokchilari unda ishtirok etish bilan bog‘liq hech qanday mulkiy risklarni o‘z zimmlariga olmaydilar.

Sovrinli o‘yinni o‘tkazish tartibi ishtirokchilar tomonidan badal to‘lash bilan bog‘liq emas va o‘yinning sovrin jamg‘armasi faqat Tashkilotchi hisobidan shakllantiriladi.

4. Sovrinli o‘yin ikki bosqichda o‘tkaziladi.

Bosqichlarni o‘tkazish davri:

a) birinchi bosqich: 2024-yil 11-noyabrdan 2025-yil 10-fevralgacha;

b) ikkinchi bosqich: 2025-yil 11-fevraldan 2025-yil 10-maygacha;

5. Har bir bosqich natijalariga ko‘ra g‘oliblarni aniqlash bo‘yicha tadbirning aniq sanasi va vaqti Tashkilotchining veb-sayti va ijtimoiy tarmoqlarida oldindan e‘lon qilinadi.

6. Sovrin jamg‘armasi va Sovrinli o‘yin bilan bog‘liq barcha xarajatlar Tashkilotchi hisobidan shakllantiriladi.

6.1. Birinchi bosqichning sovrin jamg‘armasi 115 (bir yuz o‘n beshta) ta sovrindan iborat:

- 5 ta Apple iPhone 15 smartfonlari;

- 5 ta SAMSUNG SM-A556E A55 smartfonlari;

- 20 ta Yandex Stansiya 2 aqlli kolonkalari;

- 25 ta AirPods 2.1. simsiz quloqchinlari;

- 20 ta Samsung A9 planshetlari;

- 40 ta Lenovo noutbuklari;

6.2. Ikkinchi bosqichning sovrin jamg‘armasi 115 (bir yuz o‘n beshta) ta sovrindan iborat:

- 5 ta Apple iPhone 15 smartfonlari;

- 5 ta SAMSUNG SM-A556E A55 smartfonlari;

- 20 ta Yandex Stansiya 2 aqlli kolonkalari;
- 25 ta AirPods 2.1. simsiz quloqchinlari;
- 20 ta Samsung A9 planshetlari;
- 40 ta Lenovo noutbuklari;

7. G'olibni aniqlash natijalari bo'yicha sovrinlarni topshirish Tashkilotchi tomonidan o'yin g'oliblari e'lon qilingan kundan boshlab 90 (to'qson) kalendar kundan kechiktirmay, bir vaqtning o'zida G'olibdan talab qilinadigan ushbu Qoidalarining 11-bandida ko'rsatilgan barcha ma'lumotlarni Tashkilotchiga taqdim etish bilan birgalikda amalga oshiriladi.

8. Fors-major holatlari (gadjetlarni yetkazib berishdagi qiyinchiliklar, pudratchidan talab qilinadigan modelning yo'qligi va boshqalar) yuzaga kelgan taqdirda, barcha fors-major holatlarni hisobga olgan holda ularni bartaraf etish choralari ko'riladi. O'yinda ishtirok etish uchun eMaktab ilovasida ko'rsatilgan telefon raqami kartaga ulangan telefon raqamiga mos kelishi kerak. Aksiya ishtirokchilari ro'yxati ANORBANK va eMaktab ijtimoiy tarmoqlari va messenjerlarida e'lon qilinadi. Ishtirokchilar ularning ma'lumotlari ishtirokchilar ro'yxatida mavjudligini bilish uchun ro'yxatni tekshirishlari kerak. Ro'yxatda o'zini topa olmagan ishtirokchilar yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolarni hal qilish uchun aloqa markaziga murojaat qilishlari kerak.

Agar Sovrinli o'yin G'olibi Tashkilotchiga ushbu Qoidalarining 11-bandida ko'rsatilgan ma'lumotlarni taqdim etmasa, G'olib g'alaba qozonish huquqini yo'qotadi.

9. Sovrinli o'yinda ishtirok etish shartlari:

Har bir xohlovchi ota-ona bir vaqtning o'zida lotereyada qatnashish uchun quyidagi shartlarni bajargan holda Sovrinli o'yin ishtirokchisi bo'lishi mumkin:

a) sovrinli o'yin o'tkazilayotgan muddat ichida faol bo'lgan Mastercard ANOR BLACK va/yoki Uzcard DUO va/yoki HUMO TRIA va/yoki Uzcard Kids bank kartalariga ega bo'lishi;

b) sovrinli o'yin davomida **eMaktab** tizimiga ulangan bo'lishi;

d) o'yinning har bir bosqichi davomida ANORBANK kartalaridan kunlik xaridlar uchun jami 300 000 so'mdan kam bo'lmagan miqdorda to'lovlarni amalga oshirish;

e) Ota va/yoki onaning eMaktab profilida ko'rsatilgan telefon raqami Anorbank kartasiga ulangan telefon raqami bilan bir xil bo'lishi;

f) sovrinli o'yin reglamentiga ko'ra, respublikadagi maktablarning **eMaktab** tizimiga ulangan 1-11-sinf o'quvchilari har bir bosqich mobaynida to'plagan "to'rt" va "besh" baholari uchun yaxshi o'qish evaziga turli sovrinlarni yutib olish imkoniyatiga ega bo'ladilar.

Masalan, "4" yoki "5" baho olgan o'quvchi avtomatik ravishda tegishli 4 va 5 ball oladi. Natijada jami 100 ballni 1 kuponga almashtirish mumkin.

Har bir kupon sovrinli o'yinida qatnashish uchun bitta (1) imkoniyatni taqdim etadi, unda g'oliblar tasodifiy raqamlar generatori tomonidan tanlov asosida aniqlanadi. O'quvchilarning kuponlari qancha ko'p bo'lsa, g'alaba qozonish imkoniyatlari shunchalik yuqori bo'ladi.

f) loyiha shartlariga ko'ra, o'quvchilar baho oladilar, ota-onalari esa ularni kuponlarga almashtirib, sovrinli o'yinda qatnashadilar. O'quvchilarning ota-onalari birinchi bosqichda to'plangan ballarni keyinchalik kuponlarga almashtirish imkoniyatiga ega bo'ladilar;

g) ushbu loyiha doirasida ANORBANKdan jismoniy Mastercard ANOR BLACK va/yoki UzCard Duo va/yoki HUMO TRIA va/yoki «UzCard Kids»bank kartalariga ega bo'lgan barcha ota-onalar ballarni kuponlarga avtomatik tarzda almashtirishlari va keng ko'lamli sovrinli o'yinda ishtirok etishlari mumkin. Shu bilan birga, yuqorida qayd etilgan bank kartaga ega bo'lmagan va uni buyurtma qilib sovrinli o'yin muddati tugagunga qadar oladigan ota-onalar ham unda ishtirok etadi.

h) sovrinli o'yinda barcha jismoniy shaxslar, jumladan, O'zbekiston Respublikasi fuqarolari, chet el fuqarolari va fuqaroligi bo'lmagan shaxslar ishtirok etishlari mumkin.

10. Sovrinli o'yinni o'tkazish va uning G'oliblarini aniqlash tartibi:

Sovrinli o'yinni o'tkazishning butun davri uchun G'oliblarning umumiy soni - 230 (ikki yuz o'ttiz) kishidan iborat.

Sovrinli o'yinni o'tkazish davrida bir nechta kuponlar mavjud bo'lsa, har bir kupon tegishli bosqichda

g'alaba qozonish uchun bitta (1) imkoniyatni taqdim etadi. Har bir yangi bosqichning boshida oldingi kuponlar hisobga olinmaydi.

Sovrinli o'yin G'oliblarini aniqlash uchun Sovrinli o'yin o'tkaziladigan kuni ishtirok etayotgan kuponlarga individual raqamlar (bundan keyin – "ID") beriladi, shuningdek, ushbu "ID"lar "Random" elektron dasturiga (tasodifiy raqamlarni tanlash generatori) yuklanadi.

Sovrinli o'yinni o'tkazish va G'olibni aniqlash quyidagi algoritmdan foydalangan holda "Random" dasturi tomonidan "ID" raqami tanlab olingan Sovrinli o'yin ishtirokchisi Sovrinni qo'lga kiritish huquqiga ega bo'lgan Sovrinli o'yin G'olibi hisoblanadi.

Sovrinli o'yinni o'tkazish va uning G'oliblarini aniqlash algoritmi bosqichma-bosqich jarayondir:

a) Sovrinli o'yin G'oliblarini aniqlash uchun Tashkilotchi ma'lumotlar bazasidan "Random" dasturiga ushbu Qoidalarning 9-bandida keltirilgan barcha shartlarni bajargan va Sovrinli o'yinda qatnashish huquqiga ega bo'lgan ishtirokchilarning "ID"lari ro'yxati diapazonini yuklaydi;

b) "ID"lar ro'yxatining diapazoni "Random" dasturiga kiritiladi, dastur esa tasodifiy tanlov orqali G'oliblarning "ID"larini aniqlaydi.

Sovrinli o'yinni o'tkazishda G'olibni aniqlash natijasini oldindan belgilash tartib-qoidalari va algoritmlardan foydalanilmaydi.

Sovrinli o'yinning har bir bosqichida ishtirokchilarning "ID"lari ro'yxatining hisoboti (yuklab olingan fayl) dastlabki ma'lumotlar sifatida ishlatiladi. Yuqoridagi algoritm bo'yicha ushbu ma'lumotlarni qayta ishlaganda, Sovrinli o'yinning har bir G'olibini aniqlash uchun natijada 230 ta (ikki yuz o'ttiz) yutuqli "ID" aniqlanadi.

Ushbu jarayon 2 (ikki) marta amalga oshiriladi, shu bilan birga: birinchi bosqichda 115 (bir yuz o'n besh) dona va ikkinchi bosqichda 115 (bir yuz o'n besh) dona sovrin g'oliblari tasodifiy tarzda aniqlanadi.

11. Sovrinli o'yindan so'ng uning G'oliblariga "Anorbank" mobil ilovasida G'olib deb e'tirof etilgani va Sovrinni yutgani haqida push-bildirishnoma yuboriladi.

Keyinchalik Sovrinli o'yin G'olibi o'zining jismoniy shaxsning shaxsiy identifikatsiya raqamini (JShShIR) Tashkilotchi xodimlariga istalgan qulay usulda taqdim etishi kerak.

Shu bilan G'oliblar ushbu Qoidalarning 6-bandida ko'rsatilgan Sovrinlarni qo'lga kiritadilar.

Sovrin Tashkilotchi tomonidan G'oliblarga ko'rsatilgan hujjatlar (pasport yoki ID karta) taqdim etilgandan so'ng, O'zbekiston Respublikasi hududidagi "ANOR BANK" AJ ofislarida shaxsan topshiriladi.

O'zbekiston Respublikasining Soliq kodeksiga ko'ra, sovrin jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig'iga (JShDS) tortiladi.

Tashkilotchi sovrinlarning barcha xarajatlarini, shu jumladan jismoniy shaxslarning daromad solig'ini to'lashni qoplaydi.

Tashkilotchi istalgan vaqtda "anorbank.uz" manzilidagi veb-saytida tegishli ma'lumotlarni joylashtirish orqali ushbu Qoidalarga so'zsiz bir tomonlama o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish huquqini o'zida saqlab qoladi.

12. Sovrinli o'yinda ishtirok etish Ishtirokchining anorbank.uz saytida e'lon qilingan ushbu Qoidalarni to'liq va so'zsiz qabul qilishini, shuningdek, Ishtirokchining Tashkilotchi tomonidan o'tkaziladigan reklama, marketing va boshqa dasturlar va aksiyalar, shuningdek ko'rsatilayotgan xizmatlar sifatini oshirishga qaratilgan tadqiqotlarni o'tkazish, marketing va/yoki statistik va/yoki boshqa tadqiqotlar o'tkazishda ishtirok etishi maqsadida mobil ilovada ro'yxatdan o'tish paytida taqdim etgan shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga roziligini bildiradi.

Tashkilotchi yoki Hamkor turli xil aloqa vositalaridan foydalangan holda Ishtirokchi bilan to'g'ridan-to'g'ri aloqalarni amalga oshirishi, shu jumladan (cheklovsiz) pochta jo'natmalari, Ishtirokchining elektron pochta manziliga pochta jo'natish, mobil telefon (SMS-xabarnoma) orqali tegishli ma'lumotlarni jo'natish, shu jumladan O'zbekiston Respublikasining "Reklama to'g'risida"gi Qonuniga muvofiq, shuningdek Tashkilotchi tomonidan O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan majburiyatlarni bajarish maqsadida reklama tushunchasiga mos keladigan ma'lumotlarni jo'natishi mumkin.

Ishtirokchi Sovrinli o'yinda ishtirok etish orqali O'zbekiston Respublikasi qonunchiligi talablariga muvofiq o'z xohishi va manfaatlarini ko'zlab, o'z shaxsiy ma'lumotlarini (O'zbekiston Respublikasi qonun hujjatlarining shaxsiy ma'lumotlarning maxfiyligini va ularni qayta ishlash jarayonida shaxsiy ma'lumotlar

xavfsizligini ta'minlashga doir talablariga rioya qilingan holda) qayta ishlash (to'plash, hisobga olish, tizimlashtirish, jamlash, saqlash, tasdiqlash, aniqlashtirish, yangilash, o'zgartirish, foydalanish, tarqatish, taqdim etish, o'tkazish (shu jumladan, O'zbekiston Respublikasi hududiga o'tkazish), tashkilotchi va uning kontragentlari tomonidan shaxssizlashtirish, bloklash va yo'q qilish (avtomatlashtirish vositalaridan va ma'lumotlar bazasini boshqarishning avtomatlashtirilgan tizimlaridan, boshqa dasturiy ta'minotdan foydalanish orqali, shuningdek, "ANOR BANK" AJ va uning kontragentlarining ichki tarmog'i orqali uzatilgan Ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini qo'lda, avtomatlashtirilgan va aralash ishlov berish uchun, shuningdek, Internet tarmog'i orqali va usiz) Tashkilotchiga ishatishga o'z roziligini beradi.

Amaldagi qayta ishlash usullari, shu jumladan (cheklovlarisiz), ma'lumotlar bazasini kerakli mezonlarga ko'ra segmentatsiyalashni o'z ichiga oladi.

Ushbu rozilik ishtirokchi tomonidan yuqorida ko'rsatilgan maqsadlarga erishish uchun zarur bo'lgan yoki ishtirokchining kerakli bo'lgan istalgan shaxsiy ma'lumotlariga, shu jumladan, familiyasi, ismi, otasining ismi, jinsi, tug'ilgan yili, oyi, sanasi, shuningdek faqat bular bilan cheklanib qolmay (O'zR qonunchiligida, xususan, O'zbekiston Respublikasi soliq kodeksida nazarda tutilgan hollarda — shaxsni tasdiqlovchi hujjatning rekvizitlari (pasport), mobil telefon raqamlari, elektron pochta manzili va boshqa ma'lumotlarga nisbatan har qanday harakatni amalga oshirishga beriladi.

Ishtirokchining shaxsiy ma'lumotlarini ushbu qoidalarga muvofiq qayta ishlashda jalb etiladigan uchinchi shaxslarni tanlash huquqi ishtirokchi tomonidan "ANOR BANK" AJga taqdim etiladi va qo'shimcha kelishuvni talab qilmaydi.

Tashkilotchi tomonidan shaxsiy ma'lumotlarni ishlash O'zbekiston Respublikasi amaldagi qonunchiligiga muvofiq amalga oshiriladi.

13. Aksiyada ishtirok etib, Aksiya g'olibi deb topilgan Ishtirokchi Tashkilotchining anorbank.uz manzili bo'yicha saytida, shu jumladan bosma nashrlar, radio va televideniye dasturlari, shuningdek (cheklovlarisiz) Instagram, Youtube, Facebook kabi Internet-ommaviy axborot vositalari va axborotlarni ommaviy tarqatishning boshqa vositalarida o'z ismini, familiyasini, otasining ismini va suratlarini shuningdek, sovrin bilan tushirilgan suratlarini joylashtirishga rozilik beradi.

14. Ushbu qoidalarni buzgan taqdirda, tashkilotchi aksiya ishtirokchisini aksiyada ishtirok etishdan so'zsiz chetlatishga haqli. Shu bilan birga, tashkilotchi tegishli ishtirokchiga nisbatan o'z harakatlariga izoh bermaslik huquqiga ega.

15. Aksiya ishtirokchisi (lari) o'zi haqida aniq bo'lmagan va/yoki noto'g'ri ma'lumotlar ko'rsatganligi sababli yuzaga kelishi mumkin bo'lgan har qanday salbiy oqibatlar xavfini to'la hajmda zimmasiga oladi.

16. Ushbu rag'batlantiruvchi tadbirga muvofiq Aksiyani o'tkazish natijasi yakuniy hisoblanadi va sud tartibida e'tiroz bildirilishi mumkin emas.

17. Aksiya ishtirokchisi istalgan vaqtda Aksiya tashkilotchilariga murojaat qilib, Aksiyada ishtirok etishdan voz kechishga haqli.

18. Tashkilotchi Aksiya ishtirokchisi yoki uchinchi shaxsning ushbu aksiyada qatnashishi munosabati bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan birorta va hech qanday xarajatlarni qoplamaydi.

Tashkilotchi telekommunikatsiya va energetika tarmoqlaridagi uzilishlar, zararli dasturlarning ta'sirlari, shuningdek "ANOR BANK" AJ ning dasturiy va/yoki apparat majmuasidan ruxsatsiz foydalanish va/yoki ishdan chiqarishga qaratilgan uchinchi shaxslarning noinsoflik bilan qilgan xatti-harakatlari oqibatida yuzaga kelgan majburiyatlarni bajarmaslik yoki lozimlik darajasida bajarmaslik uchun javobgar bo'lmaydi.

Aksiya Tashkilotchisi, biror sababga ko'ra, ushbu aksiya yoki uning biror bir qismi kompyuter viruslari, nuqsonlar, manipulyatsiyalar, ruxsatsiz aralashishlar, soxtalashtirishlar, texnik muammolar valyuta kursining keskin sakrashi/o'zgarishi natijasida sanksiyalar, va/yoki "ANOR BANK" AJ tomonidan nazorat qilinmaydigan har qanday sababga ko'ra aksiyaning bajarilishiga, xavfsizligiga, halolligiga, yaxlitligiga putur yetkazadigan yoki ta'sir qiladigan bo'lsa, aksiya o'tkazilishini bir tomonlama bekor qilish yoki to'xtatib turish huquqiga ega.

19. Tashkilotchi anorbank.uz saytida tegishli ma'lumotni joylashtirish orqali istalgan vaqtda Ishtirokchini oldindan shaxsan ogohlantirmasdan, mazkur Qoidalarga o'zgartirish va/yoki qo'shimchalar kiritish, aksiya o'tkazilishini to'xtatish/to'xtatib turish/bekor qilish huquqini so'zsiz o'zida saqlab qoladi.

20. Agar Aksiya G'olibi 15 (kalendar) kun ichida Tashkilotchi yoki ijrochi bilan bog'lanmasa, uning

mukofoti bekor qilinadi.